

EMITENTNING YUQORI BOSHQARUV ORGANI TOMONIDAN QABUL QILINGAN QARORLAR, SHU JUMLADAN AKSIYALAR, KORPORATIV OBLIGATSIYALAR VA BOSHQA QIMMATLI QOG‘OZLARNI CHIQRARISH BO‘YICHA XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR KUZATUV KENGASHINING QARORLARI.

1.	EMITENTNING NOMI	
	To‘liq:	“O‘zkimyo sanoat” aksiyadorlik jamiyati
	Qisqartirilgan:	“O‘zkimyo sanoat” AJ
	Birja tikerining nomi:	-
2.	ALOQA MA’LUMOTLARI	
	Joylashgan yeri:	100011, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 38-uy.
	Pochta manzili:	100011, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 38-uy.
	Elektron pochta manzili:	uzkimyo sanoat@uks.uz
	Rasmiy veb-sayti:	www.uzkimyo sanoat.uz
3.	MUHIM FAKT TO‘G‘RISIDA AXBOROT	
	Muhim faktning raqami:	06
	Muhim faktning nomi:	Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shu jumladan aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar kuzatuv kengashining qarorlari.
	Umumiy yig‘ilish turi:	Navbatdan tashqari
	Umumiy yig‘ilish o‘tkazish sanasi:	08.02.2024
	Umumiy yig‘ilish bayonnomasi tuzilgan sana:	15.02.2024
	Umumiy yig‘ilish o‘tkazilgan joy:	100011, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

Umumiy yig'ilish kvorumi:		100,00					
№	Ovoz berishga qo'yilgan masalalar	Ovoz berish yakunlari					
		yoqlash		qarshi		betaraf	
		%	soni	%	soni	%	soni
1.	“O‘zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.	100,0	2888519442	0	0	0	0
2.	“O‘zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.	100,0	2888519442	0	0	0	0
3.	“O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi a'zosi Sh.Vafayevning vakolatini muddatidan avval tugatish.	100,0	2888519442	0	0	0	0
4.	“O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi a'zosini saylash.	100,0	2888519442	0	0	0	0
5.	“O‘zkimyosanoat” AJning qo'shimcha aksiyalarini chiqarish orqali ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish.	100,0	2888519442	0	0	0	0
6.	“O‘zkimyosanoat” AJning aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorini tasdiqlash.	100,0	2888519442	0	0	0	0
7.	“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari bo'yicha birinchi o'rinbosarini tasdiqlash.	100,0	2888519442	0	0	0	0

8.	“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining investitsiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosarini tasdiqlash.	100,0	2888519442	0	0	0	0
№	Umumiy yig‘ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘liq bayoni:						
1.	<p>Sanoq komissiyasi a‘zolari soni 3 (uch) kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:</p> <p>B. Sultanov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari;</p> <p>M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;</p> <p>D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.</p>						
2.	<p>Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:</p> <ul style="list-style-type: none"> - asosiy masalalar bo‘yicha ma‘ruzachilarning chiqishlari uchun – 10 daqiqagacha; - qo‘shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha; - ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 15 daqiqa. 						
3.	<p>“O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi a‘zosi Sh.Vafayevning vakolati muddatidan avval tugatilsin.</p>						
4.	<p>O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining Investitsiya loyihalarini monitoring qilish boshqarmasi Yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati loyihalarini monitoring qilish bo‘lim boshlig‘i Mavlyudov Eldar Xayratdinovich “O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi tarkibiga uch yil muddatga saylansin.</p>						
5.	<p>5.1. “O‘zkimyosanoat” AJning 3 307 354 761 090,00 so‘mlik ustav fondini 3 352 228 756 080,00 so‘mga yetkazish uchun nominal qiymati 1 145 so‘mdan bo‘lgan 39 191 262 dona umumiy qiymati 44 873 994 990,00 so‘mlik egasining nomi yozilgan oddiy qo‘shimcha aksiyalar chiqarilsin.</p> <p>5.2. Qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari quyidagicha belgilansin:</p> <p>aksiyalar jamiyatning aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yopiq usulda birjadan tashqari uyushmagan qimmatli qog‘ozlar bozorida to‘g‘ridan to‘g‘ri bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan joylashtiriladi;</p> <p>aksiyalarni joylashtirish qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kun davomida amalga oshiriladi;</p>						

aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kun; aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishdagi eng oxirgi aksiya joylashgan sana, lekin qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim;

Agar joylashtirishning boshlanish sanasi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa, joylashtirishning boshlanish sanasi o‘sha kunlardan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish birjadan tashqari uyushmagan qimmatli qog‘ozlar bozorida to‘g‘ridan to‘g‘ri bitimlar tuzish hamda ularni Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida va tegishli investitsiya vositachisida qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Mazkur chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda andarrayterlar jalb qilinmaydi. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 145 (bir ming bir yuz qirq besh) so‘mdan joylashtiriladi.

Aksiyalar uchun to‘lov quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jizzax va Toshkent viloyatlarida kimyo-industrial texnoparklarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 20-apreldagi PQ-127-son qaroriga asosan “Jizzax plastmassa” AJ ustav kapitalidagi 85,8 foiz davlat ulushi 13 045 424 640,0 so‘m nominal qiymatida;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatida mavjud quvvatlardan samarali foydalanish hamda ichki va tashqi bozorda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-iyuldagi PQ-242-son qarorining 1-ilovasiga asosan “Uzkimyoimpeks” MChJ, “RKTUning Toshkent shahridagi filiali qurilishi direksiyasi” MChJ hamda “Farmatsevtik PVX” MChJ ustav kapitalidagi ulushlar 31 819 577 569,0 so‘m balans (qoldiq) qiymatida;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jizzax va Toshkent viloyatlarida kimyo-industrial texnoparklarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 20-apreldagi PQ-127-son qaroriga asosan Toshkent viloyati Chirchiq shahri “X. Maqsudov” MFY Qangli ko‘chasi, 1-uy hududida joylashgan Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi balansidagi “2-sonli ro‘yxatdan o‘tkazish va imtihon olish bo‘limi” ma‘muriy binosi (umumiy maydoni 470 metr kv bino-inshootlar va ular joylashgan 0,22 gektar yer maydoni va boshqa qo‘shimcha aktivlar) 8 992 991,44 so‘m balans (qoldiq) qiymatida;

- shuningdek, 2023-yil 7-iyunda P0351-16-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “O‘zkimyo sanoat” AJning aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qaroriga asosan 340,13 so‘m miqdoridagi qoldiq mablag‘ jami 44 873 995 540,57 so‘m mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda, aktivlarning balans (qoldiq) qiymati va qo‘shimcha chiqariladigan aksiyalarning jami qiymati o‘rtasidagi farq ya‘ni 550,57 so‘m miqdoridagi qoldiq mablag‘ davlat (Iqtisodiyot va moliya vazirligi) aktivi sifatida kelgusida hisobga olinadi.

Aksiyalarning chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, jamiyat bu haqda ommaviy axborot vositalarida, Korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz), jamiyatning rasmiy veb-saytida (www.uzkimyosanoat.uz) rasmiy xabar e‘lon qiladi.

Mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to‘loviga yo‘naltirilgan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan kundan boshlab 10 kun ichida qaytariladi.

6. 6.1. “O‘zkimyo sanoat” AJning aksiyalari qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. T.Muxamedjanov aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirsin.

7	<p>7.1. Korjikov Yevgeniy Aleksandrovich “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimiga tasdiqlansin va u bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuzilsin.</p> <p>7.2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Y.Korjikov bilan mazkur bayonnoma qarorining 7.1-bandida nazarda tutilgan muddatga mehnat shartnomasini imzolash vakolati kuzatuv kengashi raisiga berilsin.</p>
8	<p>8.1. Kurbanov Akbar Djaxangirovich “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining investitsiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga tasdiqlansin va u bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuzilsin.</p> <p>8.2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisining investitsiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari A.Kurbanov bilan mazkur bayonnoma qarorining 8.1-bandida nazarda tutilgan muddatga mehnat shartnomasini imzolash vakolati kuzatuv kengashi raisiga berilsin.</p>

Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash:						
Kandidatlar to‘g‘risida ma’lumot						
№	F.I.Sh.	Ish joyi	Lavozimi	Tegishli aksiyalar		Ovozlar soni
				turi	soni	
1.	Mavlyudov Eldar Xayratdinovich	O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	Bo‘lim boshlig‘i	-	0	2 888 519 442